



BIRJA FAOLIYATIDA BROKERLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

Ismailov Farrux Rustam o'g'li

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot

kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada birja faoliyatida brokerlik xizmatlarini rivojlantirishning zarurligi, ahamiyati va imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Birja, broker, savdo, bitim, xizmat.

Аннотация: В данной статье освещены необходимость, важность и возможности развития брокерских услуг на фондовом рынке.

Ключевые слова: Биржа, брокер, торговля, сделка, услуга.

Abstract: This article highlights the necessity, importance and possibilities of developing brokerage services in the stock market.

Key words: Exchange, broker, trade, transaction, service.

Ma'lumki, birja faoliyati tovarlar bozorini tashkil etish va tartibga solish hamda unda talab va taklifdan kelib chiqqan holda tovarlarga nisbatan narxlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib hisoblanadi. Ammo, birja savdosi birja biznesining bir qismi bo'lib, uning ostida birja bajaradigan funksiyalar va birja yig'ilishi manfaati yotadi. Bu esa olinadigan natijani belgilaydi, ya'ni, birja tovari likvidligi, marketing ko'rsatkichlarini yaratish va boshqalar shular jumlasidandir [1]. Ushbu faoliyatni samarali amalga oshirishda brokerlar va ularning faoliyati muhim o'rin tutadi.

Broker - investor va birja o'rtasidagi majburiy vositachidir. Brokerlar birja a'zolari bo'lib, xaridorlarning buyrug'i asosida tovarlarni oldi-sotdisi bo'yicha shartnoma tuzadi va o'z ishi uchun komissiya oladi [2]. Uning asosiy vazifasi mijoz nomidan komissiya



evaziga valyuta, qimmatli qog'ozlar yoki aktivlarni sotib olish va sotish bo'yicha savdo bitimlarini tuzish hisoblanadi. Broker - mijozga ma'lum bir xizmat yoki mahsulotni olishda imkon beradigan vositachi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy brokerlik xizmatlari moliya bozorlarida bir qator xizmatlarni ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, brokerlar tomonidan quyidagi qo'shimcha xizmatlar ham taqdim etiladi:

- operatsiyani bajarish uchun mijozga kredit berish;
- bozor tahlilini o'tkazish;
- savdo bo'yicha tavsiyalar berish;
- ishonchli boshqaruvni amalga oshirish;
- mijozlarni bilimini oshirish uchun o'qitish.

Shuningdek, broker moliyaviy mexanizmdagi muhim ishlarni bajaradigan vositachidir. U moliyaviy bozor ishtirokchilarini o'zaro bog'laydi hamda ularga bitimlar tuzish va pul ishlash imkoniyatini yaratib beradi. Brokerlik xizmatlari fond birjasida savdo qilish va bitimlardan foyda olishni xohlovchi har qanday jismoniy shaxsga zarur sanaladi. Tashqarida bo'lgan har qanday kishi kelib birjada savdo qila olmaydi. Chunki, ushbu faoliyat litsenziyani talab qiladi. Savdo tajribasi va tanlangan strategiyaga qarab, brokerlik xizmatlarini ko'rsatish har bir investor uchun o'ziga xos xususiyat va mas'uliyat kasb etadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lgan yangi ish boshlanuvchi brokerlar xizmatning qo'shimcha imkoniyatlarini e'tiborsiz qoldirmasliklari lozim. Kelajakda savdo yanada muvaffaqiyatli va foydali bo'lishi uchun ular yanada ko'proq pul sarflash lozim. Bu yerda xavfsiz brokerni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali investorlar uchun broker tomonidan taqdim etilgan ta'lim va maslahatlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Ular brokerlik xizmatlari sifatini ish samaradorligi va texnik imkoniyatlari bilan baholaydilar.

Shuni aytish lozimki, birjada broker yoki vositachini tanlashda alohida ehtiyot bo'lish talab etiladi. Ya'ni, foydali bitimlarni amalga oshirish ko'p jihatdan uning xizmatlari sifatiga bog'liq bo'ladi. Shu bois, brokerni tanlashda quyidagi afzalliklarga alohida e'tibor berish lozimdir [3]:



- katta imkoniyatlarga ega yuqori sifatli savdo maydonchasi;
- moliyaviy vositalarning keng tanlovi;
- hisobni to'ldirish va olingan pul mablag'larni olishning qulay usullari;
- tizimning operativ ishlashi;
- har qanday muammoni hal qilishga imkon beradigan yaxshi mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati;
- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (funksional shaxsiy hisob, dasturiy ta'minot, mobil ilovalar va boshqalar);
- faoliyati to'g'risida batafsil hisobot berish;
- doimiy mijozlar va yangi investorlar uchun foydali aksiyalarni o'tkazish.

Ammo, har qanday brokerlik firmasining kuchli va zaif tomonlari mavjud bo'ladi. Shu bois, vositachini tanlashda muhim bo'lgan fikrlarga e'tibor qaratish kerak. Ba'zi kamchiliklar boshqa brokerni tanlashda hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin. Avvalo, bu holatda kelishuv uchun yuqori komissiya va katta boshlang'ich kirish summasi, yashirin to'lovlar va qo'shimcha komissiyalar hamda zaif texnik tomonlar hisobga olinishi lozim. Xususan, brokerni tanlashda litsenziya mavjudligini tekshirish, reytingni baholash va sharhlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, brokerlik xizmatlarining kerakligini tushunish uchun imkoniyatlar to'g'ri baholanib, strategiya aniqlanadi. Zarur masala haqida aniq tasavvurga ega bo'lish turli variantlar va reklama aksiyalari bo'ylab harakat qilishni osonlashtiradi.

Xulosa shuki, brokerlar birjada vositachi sifatida mavjud bo'lib, ular keng ko'lamli xizmatlarga ega bo'ladilar. Birjada muvaffaqiyatli savdo qilishda barcha shart-sharoitlarni ta'minlaydigan vositachini aniqlash uchun imkoniyatlar va istaklarni baholash kerak. Keyichalik esa qulay va foydali bo'lgan xizmatlar va tariflar to'plamiga ega brokerlik kompaniyasini tanlash lozim. Bu esa birja faoliyatida brokerlik xizmatlarining mavjud imkoniyatlari bilan namoyon bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Меликова Л.М. Методическое пособие “Биржевые торги”. - Майкоп: ИП Магарин, 2013. - с. 4
2. Микитина Л.В. Товарная биржа. Лекция. – Томск, 2009. - с. 2.
3. <https://www.finam.ru/publications/item/brokerskie-uslugi-obsluzhivanie-cto-eto-takoe-i-zachem-oni-nuzhny-20190605-16390/>